

1-topshiriqning yechish algoritmi:

Topshiriq shakllarining har biri vertikal va gorizontal qatorlarda takrorlanmasdan aylana, kvadrat va romb kabi shakllar $[\diamond \leftrightarrow \square \leftrightarrow \circ]$ hosil qilmoqda, ularning ichidagi chiziqlar esa xuddi g'ildirakka o'xshab soat millari yo'nalishida aylanayotgandek harakat qilmoqda $[+ \leftrightarrow \times \leftrightarrow +]$. Demak, shakllar alohida, ularning ichidagi chiziqlar holati esa alohida tahlil etiladi. Shuning uchun, bo'sh katak o'rnida $[+]$ tartibdagi chiziqlarga ega kvadrat shakli $[\square]$ bo'lishi mantiqiy yechim hisoblanadi. Demak, topshiriqning to'g'ri javobi 3 raqami ostida berilgan.